

foydaliligi katta ma'lumotlar to'plamlarini boshqarish, keng ko'lamli statistik tahlillarni amalga oshirish, sifatli nashr grafiklarni yaratish va buyruqqa asoslangan interfeys orqali takrorlanadigan qonuniyatlarni bilishni osonlashtirish qobiliyatidadir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ni "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga doir Davlat ilovai to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni.
- 2.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2022-2026-yillarda Samarqand viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yashilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori, 28.04.2022 yildagi 222-son.
4. Б.Б. Беркинов. Эконометрика. Укув кулланма. Тошкент.: "Фан ва технология", 2015, 164 бет.
5. Rahimov Abdulahad Ne'matovich. Econometric analysis of production by german method. May.31.2022. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 3, 153-157. Retrieved from <http://ejird.journalspark.org/index.php/ejird/article/view/47>
6. Rahimov Sanjar Abdulahadovich. ISSUES ON ANALYSING PRODUCTION PROCESSES BY USING PRACTICAL ECONOMETRIC MODEL. International journal of trends in commerce and economics ISSN: 2349-543 VOL. 11. Issue 1 <http://academicjournalonline.org/index.php/ijtce/issue/archive>.
7. Rahimov Abdulahad Ne'matovich. Iqtisodiyotda ayrim qishloq xo'jalik mahsulotlar ishlab chiqarishning ekonometrik tahlili. Iqtisodiyot, Moliya va Innovatsiyalar Jurnali. № 2. 27-12- 2022 ISSN 2181-3299 www.sbtue.efin.uz. 23-29 bet.
8. Хужаев Ж.И. Алгоритм расчета трехмерного температурного поля хлопка-сырца // Вестник ТашГТУ. - Ташкент, 2014. - № 3 (87). - С. 36-39.
9. K. M. H. Eshmurodov, Kh. M. Shaimov, I. Khujaev and J. Khujaev. Method of lines for solving linear equations of mathematical physics with the third and first types boundary conditions//Journal of Physics: Conference Series 2131, 2021. -P.1-10.
10. I. Khujaev, J. Khujaev, M. Eshmurodov and K. Shaimov. Differential-difference method to solve problems of hydrodynamics. Journal of Physics: Conference Series 1333. 2019.-P.1.8.

O'ZBEKISTONNING XALQARO MOLIYA BOZORIDA INTEGRATSIYALASHUVINI TAKOMILLASHTIRISH

Xuvaydullayeva Iroda
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Iqtisodiyot" fakulteti "Mehnat iqtisodiyoti"
kafedrasи mustaqil izlanuvchisi


Globallashuv jarayonlarining rivojlanib borishi mamlakatlarni xalqaro maydonga chiqishga va yagona jahon iqtisodiyotini barpo etishga undamoqda. Bu esa "dunyodagi barcha mamlakatlar umumiyl iqtisodiy qonunlarga ko'ra rivojlanadi va ular xalqaro munosabatlar iqtisodiy xarakterining ustuvor bo'lishini anglatadi" [1].

Ammo, haqiqiy muammo shundaki, bunday ko‘p miqdordagi hujjatlar bozorga yangi manfaatdor tomonlarning kirib kelishiga to‘sinqilik qilishi va albatta xorijiy investorlarni tushkunlikka solishi mumkin. Bu esa, olim O.Narziyevning fikricha, qimmatli qog‘ozlar bozorini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishning o‘zi ham dastlabki bosqichlaridanoq katta byurokratik qog‘ozbozlik bilan to‘lib-toshgan degan ishonch tufayli fond bozoriga qiziqishni pasaytiradi.

Bozorning barcha ishtirokchilari uchun axborot ochiqligini ta’minlaydigan mustaqil registratorlarning, kliring markazlarining yanada zamonaviy tizimining, shuningdek, yetarli darajada rivojlangan infratuzilma va zarur axborot ta’mnoti bazasining mavjud emasligi. Ayni paytda O‘zbekiston fond birjasida emitentlar va ularning qimmatli qog‘ozlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar yetarli darajada aniq va yaxshi oshkor etilmagan. Ya’ni bu bo‘yicha axborot bazalari mavjud emas. Oddiy fuqaro va korxonalar uchun doimgidek mavhum.

Moliya tizimiga integratsiyalashuvda yana bir soha borki uning o‘rni juda ham sezilarli darajada. U ham bo‘lsa, bank-moliya sohasidir. Xalqaro Savdo Administratsiyasi fikriga ko‘ra, mamlakatimiz bank sohasi samarasiz faoliyat yuritayotgan sektorlar biri bo‘lib, jahonga kirib borishini cheklaydi. Ya’ni: “Uchtayirik davlat va yettita qisman davlat banklari sektor jami aktivlari va kapitalining 80 foizini nazorat qiladi. Xususiy tijorat banklari nisbatan kichik o‘yinchilardir [3].

Bugungi kunda bank tizimida transformatsiyalash, tijorat banklarini bosqichma-bosqich xususiylashtirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, bank va mijoz o‘rtasidagi munosabatlarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida yo‘lga qo‘yish kabi ishlar amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, davlat ulushi mavjud bo‘lgan tijorat banklarini kompleks transformatsiya qilish va bank tizimida davlat ulushini kamaytirishga alohida e’tibor qaratilib, banklar davlat ishtiroki saqlab qolinadigan hamda xususiylashtiriladigan banklarga ajratilmoqda [2].



1-rasm. Davlat ulushi mavjud banklarning jami aktivlari qiymati (2022-y)

Manba: <https://cbu.uz/uz/>

Davlat banklari hukumatning rivojlanish strategiyasini amalga oshirishda amalda hukumat agenti hisoblanadi”, - deya fikr bildirilgan. Rasmdan ham ko‘rinib turibdiku, davlat ulushi mavjud banklar 408403 mlrd so‘m aktivlarga ega, boshqa banklar esa undan 4 marotaba kamroq.

Shu sababdan, Yana bir muammolardan biri sifatida, “mamlakatimizdagи tijorat banklari tomonidan qimmatli qog‘ozlarni muomalaga chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarni yanada soddashtirish va ularning emitentlar hamda investorlar uchun jozibadorligini oshirish, banklarning uzoq muddatli resurslarini ko‘paytirish borasida bank depozitlari, depozit sertifikatlari va korporativ obligatsiyalarining yangi turlarini yanada takomillashtirish zarurligini ayta olishimiz mumkin [4].

Xususan, “Xitoy-Qirg‘iziston-O‘zbekiston” temir yo‘li mamlakat eksport salohiyatini oshirishga, uning tranzit imkoniyatlaridan samarali foydalanishga sharoit yaratadi. Mamlakatda qazib olinadigan ko‘mir va gidroelektrostantsiyalarda ishlab chiqariladigan energoquvvatlar mintaqaning ushbu yo‘nalishdagi ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilishi bilan birga, mamlakatlar o‘rtasidagi integratsiya jarayonlarini faollashtirishning muhim omili bo‘lishi mumkin.



2-rasm. Qirg‘iziston Respublikasining savdo balansi (1997-2021y, mlrd dollarri) [5]

Qirg‘iziston “Tashqi siyosiy konsepsiyasida” respublika barqaror rivojlanishi va aholi turmush darajasi o‘sishini ta’minlash uchun mintaqaviy va xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarida qatnashishi strategik maqsad sifatida belgilab qo‘yilgan [6].

Bu borada asosiy e’tibor, xorijiy investitsiyalar asosida mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, tashqi savdoni erkinlashtirish, Butunjahon savdo tashkiloti va YeOIIga a’zosi hamda Yevropa Ittifoqi doirasida “Umumiy preferensiyalar tizimi” foydalanuvchisi sifatida milliy mahsulotlarini halqaro bozorlarga erkin chiqarish, mintaqaviy va xalqaro transport-kommunikatsiya tarmoqlariga qo‘shilish, mamlakatning sayyohlik imkoniyatlaridan samarali foydalanish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish masalalariga qaratilmoqda. Qirg‘iziston hukumati Markaziy Osiyo mintaqasida insonlar,

tovar va xizmatlar hamda kapitalning erkin harakatlanishini ta'minlovchi har tomonlama manfaatli integratsiyaviy loyihalarni qo'llab-quvvatlashini ta'kidlaydi.

Qirg'iz Respublikasining 2040-yilgacha rivojlanish strategiyasida YeOII doirasida yoqilg'i-energetika resurslarining umumiyligi bozorini shakllantirish, ishlab chiqarish va tranzit salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi loyihalarni amalga oshirish, ishlab chiqarish omillarini to'siqliklarsiz harakatini ta'minlovchi mexanizmlarni takomillashtirish lozimligi ko'rsatib o'tilgan.

Biznes va start-uplarni boshlash Finlyandiyaning arzonroq va kamroq protsessual qadamlarni talab qilsa-da, Finlyandiya tadbirkorlari bu bosqichlarni bajarish uchun butun Yevropa Ittifoqiga qaraganda ko'proq vaqt sarflashadi. Ammo, elektr aloqasi Finlyandiyaning oltita shahrining barchasi Evropa Ittifoqi o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori bo'lgan sohadir. Finlyandiyada kommunal xizmatlar o'z mijozlarini kamroq vaqt va arzon narxlarda bog'laydi va elektr ta'minoti Yevropa Ittifoqidagi eng ishonchli hisoblanadi.

Finlyandiya shaharlarida ishbilarmonlik muhitini yaxshilash bo'yicha, ayniqsa, qurilish ruxsatnomalari, elektr energiyasiga ularish va tijorat sudlovlari bo'yicha ilg'or tajriba almashish imkoniyatlari mavjud.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, xalqaro moliya tizimi – ikki yoki undan ko'p bo'lgan mamlakatlar o'rtasidagi makroiqtisodiy munosabatlari va ularning pul operatsiyalari bilan shug'ullanadigan moliyaviy iqtisodiyotning tizimi. Foiz stavkasi, ayirboshlash kursi, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va valyuta kabi tushunchalar ushbu moliya tizimiga kiradi. Biz globallashgan dunyoda yashamoqdamiz. Rivojlangan mamlakatlar rivojlanayotgan mamlakatlardan arzon ishchi kuchini, rivojlanayotgan mamlakatlar esa xizmatlar va mahsulotlarni izlaydi. Ikki davlat o'rtasida savdo sodir bo'lganda, ular moliyaviy integratsiyaga kirishishadi. Biroq, moliyaviy globallashuv va moliyaviy integratsiya, asosan, turli tushunchalardir. Moliyaviy integratsiya deganda alohida davlatning xalqaro kapital bozorlari bilan aloqasi tushuniladi. Shubhasiz, bu tushunchalar bir-biri bilan chambarchas bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aliyev A.A. *Tashqi Iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish, o'quv qo'llanma*, 2007, 10 – b.
2. Asqarova M.I. "International Conference on Innovative Development of Education 2022/18" (https://t.me/Erus_uz/1066) nomli xalqaro konferensiya ilmiy maqolalar to'plami. 67-73 бб.
3. <https://www.trade.gov/country-commercial-guides/uzbekistan-market-challenges>
4. <https://cbu.uz/uz/>
5. <file:///C:/Users/User/Downloads/o-zbekistonda-qimmatli-qoq-ozlar-bozorining-hozirgi-holati-tahlili-va-bu-bozorda -kapital-jalb-qilishning-istiqbollari.pdf>
6. <https://www.macrotrends.net/countries/KGZ/kyrgyz-republic/trade-balance-deficit>
7. Концепция внешней политики Кыргызской Республики от 2019 года. <http://cbd.minjust.gov.kg/act/view/ru-ru/430045>